



SO‘Z O‘RTASIDA YONMA-YON (QO‘SHALOQ) YOZILADIGAN AYRIM HARFLAR XUSUSIDA

Jomonov Ravshan Oripovich

Abu Rayhon Beruniy universiteti, professor

Tel: +99890 326 19 27

E-mail: r.oripovich@mail.ru

Annotatsiya. O‘zbek lotin alifbosida o‘z orfografik yechimini kutayotgan masalalardan biri – so‘z o‘rtasida yonma-yon (qo‘shaloq) yoziladigan ayrim harflar imlosidir. Masalan, grammatika so‘zi talaffuzida bitta [m] tovushi eshitilsa-da, lekin asl manba va rus tilida qo‘shaloq harf bilan yozilgani bois o‘sha taxlitda yozib keldik. Aslida, bunday tipdagi so‘zlarni o‘zbeklar jonli nutqiga muvofiq tarzda – bitta undosh bilan ifodalash orfografik jihatdan to‘g‘ri yechim bo‘ladi: orfografik simmetriya – tovush va harf uyg‘unligi ta‘minlanadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek lotin alifbosi, imlo tamoyillari, qo‘shaloq undoshlar, asl manba, vosita til, orfografik simmetriya, tovush va harf uyg‘unligi.

Аннотация. Одной из проблем правописания, требующей решения в узбекском латинском алфавите, является написание некоторых букв, которые пишутся рядом (двубуквенные). Например, хотя слово грамматика произносится одним звуком [m], мы написали его с двумя буквами, поскольку в оригинальном источнике и в русском языке оно пишется с удвоенной буквой. На самом деле, выражение таких слов способом, соответствующим живой речи узбеков, — одним согласным, — было бы орфографически правильным решением: обеспечивается орфографическая симметрия — гармония звука и буквы.

Ключевые слова: узбекский латинский алфавит, принципы орфографии, удвоенные согласные, первоисточник, язык-посредник, орфографическая симметрия, гармония звуков и букв.

Abstract. One of the spelling problems that needs to be addressed in the Uzbek Latin alphabet is the spelling of certain letters that are written next to each other (two-letter letters). For example, although the word grammar is pronounced with one sound [m], we wrote it with two letters, since in the original source and in Russian it is written with a double letter. In fact, expressing such words in a way that corresponds to the living speech of Uzbeks – with one consonant – would be an orthographically correct solution: it ensures orthographic symmetry – the harmony of sound and letter.

Key words: Uzbek Latin alphabet, principles of spelling, double consonants, primary source, intermediary language, orthographic symmetry, harmony of sounds and letters.

KIRISH.

Til amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlar transliteratsiyasida hal etilishi lozim bo‘lgan holatlar, bahsli o‘rinlar mavjud. Nazarimizda, mana shunday munozarali holatlardan biri – o‘zlashmalarda yonma-yon (qo‘shaloq) kelgan ayrim harflar masalasidir. Aslida, bunday holatlar asl turkiy tub so‘zlarda juda kam uchraydi: *ikki, to‘qqiz, katta, chakka, achchiq, tullak, jajji* va shu kabilar. Forsiy va arabiy o‘zlashmalarda ham unchalik ko‘p emas: *dakki, pilla, tilla, jiddiy, oddiy, moddiy, ayyor, tayyor, sayyor, billur, jinni, dajjol, labbay, murabbo, sassiq, omma, munajjim* va hokazolar.

Keltirilgan misollarda ikki undosh tovushning yonma-yon kelishi ularning aytilishi va yozilishida qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunki yonma-yon kelgan bir xil undosh alohida-alohida talaffuz qilinadi hamda alohida bo‘g‘inni hosil qiladi: *од-дуй, лаб-бай, жаж-жи, ук-ки, ом-ма* va hokazo. Agar mazkur leksemalardagi yonma-yon kelgan undoshdan biri tushirib qoldirilsa so‘zning talaffuzi, ayni paytda uning



lug‘aviy ma‘nosi ham o‘zgarib ketadi: *ушиоқ–ушоқ, машиоқ–машоқ, биллур–билур* kabi. Demak, asl turkiy so‘zlar, forsiy va arabiy o‘zlashmalardagi yonma-yon kelgan undoshlar fonetik jihatdan o‘zini oqlaydi. Shu boisdan ham ularni to‘g‘ri orfogrammalar tarzida qabul qilish mumkin.

Rus tili orqali o‘zlashtirilgan, Yevropa tillaridan kirib kelgan leksemalar xususida esa qat‘iy bir hukm bildirish qiyin. Negaki, Yevropa tillarida bir xil undoshning yonma-yon kelishi o‘ziga xos bo‘lib, juda qadimgi davrlar bilan bog‘lanib ketadi. Aniqrog‘i, bunday orfogrammalarining saqlanib qolishi imloning tarixiy-an‘naviy prinsipidan kelib chiqqan. Hozirgi paytda ko‘p holatlarda yonma-yon kelgan bir xil undoshlar ikki fonema tarzida emas, balki yagona bir tovushni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *grammaire* shaklidagi yozuv fransuz tilida [gramer] tarzida, bitta [m] tovushi bilan aytiladi. Ayni shu so‘zdan *grammatical* so‘zi yasaladi va [gramatikal] tarzida, bitta [m] tovushi bilan talaffuz qilinadi. [Безвесельная Н.Е., Данченко Т.А. 2010, 212]. Nazarimizda, aynan ana shu orfogramma asosida rus tilida *грамматика* so‘zi yuzaga kelgan. Rusiyazon kishilarning nutqidan ma‘lum bo‘ladiki, mazkur leksema rus tilida ancha yumshoq talaffuzga ega bo‘lib, [m] tovushi qo‘shaloq holatda eshitilmaydi. Lekin rus orfografiyasida *грамматика* so‘zshakli qabul qilingan, yozuv amaliyotidan qat‘iy o‘rin olgan. Ayniqsa, tilshunoslik fanining alohida bir bo‘limi sifatida ilmiy-nazariy adabiyotlardan mustahkam joy olgan.

XX asrning 30-yillaridan boshlab *grammatika* asosiy termin sifatida o‘zbek tilshunosligidan ham joy oldi: *grammatika bo‘limi, grammatik qoida, grammatik tahlil, grammatik konstruksiya, grammatik prinsip, grammatik ma‘no, qiyosiy grammatika* va shu kabi terminlar o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanadi. Bunday so‘z va terminlar qo‘llanishiga biror e‘tirozimiz yo‘q, chunki ular o‘zbek tili terminologiyasida o‘z o‘rniga ega lisoniy birliklar sanaladi. Bu o‘rinda asosiy masala – *grammatika* so‘zidagi yonma-yon kelgan *m* harfining qo‘llanishidir.

Binobarin, yuqorida aytib o‘tilganidek, fransuz tilida ham, rus tilida ham *grammatika* so‘zining talaffuzida bitta [m-m] tovushi eshitiladi. Aslida, o‘zbek tilida ham ayni shu holat takrorlanadi. Lekin hanuzga qadar mazkur leksemani yozishda ikkita *m* harfidan foydalanamiz. Xo‘sh, bu holat orfoepik va orfografik jihatdan o‘zini oqlaydimi? Tabiiyki, o‘zini oqlamaydi, chunki mazkur orfogrammada tovush va harf uyg‘unligi – orfografik simmetriya buzilgan, aytilish va yozilish o‘rtasida mutanosiblik ko‘rinmaydi. Aniqroq aytganda, rus tilidagi shakl o‘zbek tiliga ko‘r-ko‘rona ko‘chirib o‘tkazilgan. Xuddi “yolashgan unlilar”, *u* harfi hamda ayirish (*ь*) va yumshatish (*ъ*) belgilarini qabul qilishdan asosiy maqsad – ruscha o‘zlashmalar shaklini saqlab qolish bo‘lganidek, grammatika so‘zida ikkita *m* harfining yonma-yon qo‘llanishi ham o‘zbek imlosining rus orfografiyasiga bir qadar qaramligidan darak beradi. Bizningcha, *grammatika* ni bundan buyon o‘zbek lotin alifbosida *gramatika* shaklida yozish maqsadga muvofiq ko‘rinadi [Jomonov. 2025, 171].

O‘zlashtirilgan so‘zlarning o‘rtasida yoziladigan qo‘sh undoshlar hozirga qadar jiddiy orfografik muammo tug‘dirmagan. Aniqrog‘i, rus tilidagi shakllar o‘zbek kiril alifbosiga to‘liq ko‘chirib o‘tkazilgan. Manba tillarda nima sababdan qo‘shaloq undoshlar qo‘llanishi, ularning qanday tovushlarni anglatishi, orfografik jihatdan yengillik tug‘dirishi yoki murakkablik keltirib chiqarishi kabi masalalar chuqur o‘ylab ko‘rilmagan. 1994-yilda tasdiqlangan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”da ham o‘zlashmalardagi qo‘sh undoshlarga yetarli e‘tibor qaratilmagan – o‘zbek kiril alifbosidagi holat qaytarilgan: “31. Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi: 1) *baland, Samarqand, poyezd; do‘st, artist, g‘isht* kabi so‘zlarda, *d, t* tovushi ba‘zan aytilmasa ham, yoziladi;

2) *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o‘zlashma so‘zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so‘zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo‘shilsa, so‘z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar = metallar, kilogramm+mi = kilogrammi* kabi” [Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. 1995, 12].

Mana, ulardan ayrim namunalar: *immigrant, trolleybus, affrikat, koeffitsiyent, tunnel, konnotat, abbreviatura, poppur, opponent, akkord, akkordeon, million, milliard* va shu kabilar.

Keltirilgan misollar tahlilidan ma‘lum bo‘ladiki, o‘zlashmalarining barchasi manba tillardan transliteratsiya qilingan, ya‘ni harfina-harf o‘zlashtirilgan. Agar transkripsiya qilinganda manba tildagi yozilish emas, balki aytilish hisobga olinar va o‘zbeklar nutqiga nisbatan yaqinroq bo‘lgan so‘zshakllar – orfogrammalar



yuzaga kelgan bo'lardi. Chunki biz, odatda, mazkur so'zlarni bitta undosh bilan aytishga harakat qilamiz: **imigrant, ipodrom, trolleybus, afrikat, balon, tunel, abreviatura, amiak, atestat, oponent, akordeon, baner, milion, miliard** va hokazo. **Koeffitsiyent** so'zi esa ko'pchilik o'zbeklar nutqida [koefsent] tarzida aytiladi. Shunday ekan, o'zbek lotin alifbosida mazkur so'zlar imlosini tuzatish mumkin bo'ladimi? Bu borada boshqa turkiy tillarda qanday orfografik qoidalar amal qiladi? Masalan, qozoq tilida ayni shunday holatlarda qanday yo'l tutiladi?

“Qozoq tilining imlo qoidalari”da so'z o'rtasidagi qo'sh undoshlar borasida quyidagi imlo qoidasi berilgan: “§ 89. *сс, мм, лл, тт, фф, нн, бб, рр, нн, зз, дд, кк, уу* tovushlari takrorlanadigan birikmalarda harflardan biri so'z o'rtasida tushirib qoldiriladi: *patison, komisar, resor, profesor, prosesor, asonans, disonans, disident; gramatika, komýna, imýnogen, imigrant, mamologia, simetria, amiak, anagram; metalýrgia, elips, kolej, silaby's, koloid, kolokviým, triler, alofon, troleibýs; kotej, atestat; efýzia, afekt, afrikat, koefisient; týnel, aneksia, baner, tenis, konotat; abreviatýra, gíbon, korespondent, popýri, korektor, ipodrom, oponent; sýgestia; aditiv; akaýnt, akord, akredittéy, vakým. Izoh. So'z ma'nosiga ta'sir qiladigan (ziyon yetadigan) holatda, shuningdek, o'lchov birliklarining nomlarida takrorlanuvchi tovushlar saqlanadi (tushirib qoldirilmaydi): netto, dollar, massa, tonna, million, millimetr*” [Egemen Qazaqstan QazLat © 2017-2023 QazLatConverter version: 21.4.1.].

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, o'zlashma so'zlar o'rtasida qo'llanadigan qo'shaloq harflardan biri tushib qoladi va jonli qozoq tili talaffuziga mos tarzda yoziladi. Bunday orfografik yondashuv mazkur leksemalar qozoq adabiy tiliga butunlay singib ketishini ta'minlaydi. Mazkur imlo qoidasining “Izoh” qismida berilgan orfografik yondashuv ham o'rinli. Demak, so'z ma'nosiga keskin ta'sir ko'rsatadigan o'rinlarda o'zlashma so'z o'rtasidagi qo'shaloq undosh saqlab qolinadi. Nazarimizda, ayni shunday yondashuv hozirga qadar erishilgan talaffuzni saqlab qoladi, natijada orfoepik va orfografik simmetriya yuzaga keladi.

Biroq 89-qoidada berilgan so'zlarning barchasini, o'zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan olib qaralganda, to'g'ri orfografik yechimiga ega deyish qiyin. Masalan, **professor, assonans, simmetriya, kollej, sillabus, allofon, tennis, korrektor** va shu kabi o'zlashmalarda yonma-yon yoziladigan (qo'shaloq) undoshlardan birining tushirib qoldirilishi mazkur leksemalarning talaffuzini o'zgartirib yuboradi. Binobarin, **професор** shaklida yozish [професор] tarzidagi noo'ng'ay talaffuzni yuzaga keltiradi, bo'g'in tuzilishi va so'z urg'usiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki **професор** yozilganda urg'u ikkinchi bo'g'inga – **фес**ga tushadi. Agar ushbu leksema bitta **s** bilan yoziladigan bo'lsa, hozirga qadar erishilgan talaffuzga putur yetadi, hatto so'zning qaysi bo'g'iniga urg'u tushishi ham xiralashadi.

Bizningcha, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, shunday bir orfografik qoidani tavsiya etish mumkin: O'zlashma so'zlar o'rtasida yonma-yon qo'llangan harflardan biri so'zning ma'nosiga va bo'g'in tuzilishiga zarar yetkazmaydigan, so'z urg'usiga ta'sir ko'rsatmaydigan holatlarda qo'shaloq harflardan biri tushirib qoldiriladi: **imigrant, ipodrom, trolleybus, afrikat, balon, tunel, abreviatura, amiak, atestat, oponent, akordeon, baner, milion, miliard** kabi. **Izoh.** O'zlashma so'zning ma'nosi keskin o'zgarib ketadigan holatlarda yoxud mazkur undoshlar alohida bo'g'inni tashkil etganda harflar qo'shaloq tarzda qo'llanadi: **tonna, professor, kollej, sillabus, tennis, simmetriya** kabi.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, o'zlashma so'zlarda yonma-yon (qo'shaloq) qo'llangan harflar imlosi o'zbek lotin alifbosida qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Negaki, bunday tipdagi o'zlashmalar rus tilidan o'zbek kiril alifbosiga to'liq ko'chirib o'tkazilgan. Bunda o'zlashmaning manba tillardagi holati: yozilish sababi, aytilishi hisobga olinmagan. Ular asosan transliteratsiya qilingan, qabul qiluvchi tilning fonetik-fonologik xususiyatlariga e'tibor berilmagan, o'zbeklarga xos jonli nutq umuman hisobga olinmagan. Natijada tovush va harflar nomutanosibligi – orfografik asimmetriya yuzaga kelgan. Shu sababli ham bunday o'zlashmalar xalq jonli tiliga to'liq singib ketmagan. Aslida, bunday o'zlashmalarda yonma-yon kelgan harflardan bittasining yozilishi bunday o'zlashmalarning o'zbek jonli nutqiga singib ketishiga xizmat qiladi, imloda orfografik simmetriyani yuzaga keltiradi, deb hisoblaymiz.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Новейший французско–русский, русско–французский словарь с транскрипцией. А–Я 100 000 слов. Составители: Безвесельная Н.Е., Данченко Т.А. – Киев: Издательство «Арий», Москва: ИКТЦ «Лада», 2010. –С.212.
2. Jomonov R. O‘zbek tilida so‘z o‘zlashtirish va imloni takomillashtirish muammolari. Monografiya. – Toshkent: ZEBO-PRINT, 2025. – B.171.
3. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Tuzuvchilar: Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B.12.
4. Egemen Qazaqstan QazLat © 2017-2023 QazlatConverter version: 21.4.1.